

## RUS TILI O'QITISH METODIKASINING UMUMIY QOIDALARI

*Habibullayeva Gulifarxon Hayotillo qizi*

*ADU, Filologiya fakulteti O'zga tilli guruhlarda rus tili yo'nalishi  
4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada rus tili o'rganuvchilari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u yoki bu sohani qamrab olmagan holda rus tilini samarali o'rganishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** grammatika, real muloqot, ravon so'zlash, rus tili, oddiy iboralar, o'smir bolalar, qiziqarli hikoyalar.

“Ko'zlarinigiz bilan emas, kuloqlaringiz bilan o'rganing!” Agar siz rus tilida ravon va to'g'ri so'zlashni xoxlasangiz, avval tinglashingiz kerak. Tinglash, tinglash va yana tinglash - rus tilida tug'ri so'zlashning kalitlaridan biridir. Bu juda muhim masala hisoblanadi. Chunki, qanchalik ko'p tinglasangiz, shunchalik ko'p so'z boyligiga ega bo'lib, grammatikani o'rganasiz, shuningdek, tezrok so'zlab, nutqni tushunasiz[1]. Tinglash, yana takror aytaman, bu rus tilida ravon va to'g'ri so'zlashning sexrli kalitidir. Buning samarasi katta. Tinglash qo'lingizdan keladi. Xar bir millat o'z ona tilini quloqlari bilan eshitish orqali o'rganadi. Agar rus tilida to'g'ri, oson va ravon so'zlashni xohlasangiz, ko'p tinglash bajarishingiz lozim bo'lgan vazifadir. Keling, tinglash xususiyati haqida so'z yuritaylik, chunki qanday tinglash va nimani tinglashbu juda muxim. Dastlab oson va sodda jummalarni tinglashingiz shart. Ular oddiy va kiziqarli bo'lishi lozim.

«Oddiy» deganda nimani nazarda tutayapmiz? Til o'rganuvchi jummalarning 90 foizi va undan ko'prog'ini tyxtab qolmasdan, lug'atsiz tushunishi kerak. Bu-til o'rganish jarayonini ancha osonlashtiradi. Shu bois ilk bosqichda doimo oddiy iboralarni tinglashingiz kerak bo'ladi. Mazkur tilda o'smir bolalar uchun tayyorlangan tele va radio dasturlari hamda bolalar audiokitoblardan foydalanishingiz mumkin[2]. Agar bu ham qiyinchilik tug'dirsa, osonrog'ini toping: yosh bolalar uchun mo'lljallangan dasturlarni tinglang. Nimanidir tushunmay qolsangiz, matndan foydalanishingiz mumkin. Bunday xolda ovoz chiqarib o'qish tavsiya etiladi. Tinglash davomida matnga karash mumkin bu noto'g'ri yo'l emas. Ammo eng muhimi - tinglash, tinglash, tinglash ekanligini unutmang. Siz mp-3 pleyerdan foydalaning. Ruscha eshittirishlar, audiokitoblarni imkon bo'ldi deguncha eshiting. Darsliklardagi oddiy, qiziqarli hikoyalarni o'qishga emas, ko'proq tinglashga e'tibor karating. Ko'rib emas, tinglab o'rganing!

Kichik hikoyalarning rus tilini mukammal o'zlashtirishingizda axamiyati katta. Siz ularni baland ovozda o'qiysiz (tinglaysiz) va o'qiganingiz (tinglaganingiz) bo'yicha savollarga baland ovozda javob berasiz. Bu mulokot jarayoniga o'xshaydi. Real

muloqot kabi ko'plab savollar va ko'plab javoblar. Kichik xikoyalar juda samarali. Bu kabi hikoyalar sizni ravon so'zlashingiz, tez va aniq tushunishingizga yordam beradi. Siz ko'plab takrorlashlarni bajarasiz. Suz birikmalari, iboralarni o'rganasiz, buning natijasida grammatik xatolaringiz o'z-o'zidan kamaya boradi[3]. Rus tilini o'rganish uchun kichik xikoyalardan foydalanganda zerikmaysiz. Shunday ekan, toliqmaysiz, toliqmagach, uzoq vaqt shug'ullanasiz. Agar toliqsangiz, ozgina dam oling. Kichik xikoyalarni o'rganish jarayonida uch usulni: jarangdor ovoz, quvvatga to'la tana va harakatni birgalikda qo'llang. Agar tanangiz harakatda bo'lib, mashqlardagi savollarga jarangdor ovoz bilan javob bersangiz zerikish, toliqish yuz bermaydi. Bu kabi mashqlarni bajarishingiz stress, salbiy xolatlar yuz berishiga yo'l qo'ymaydi. Uchala mashqni bajarish sizda yangi quvvat paydo qiladi, miya va qon harakati faollashadi. Agar siz qisqa vaqt ichida rus tilini o'rganishni xohlasangiz (aytaylik, olti oyda), sodda audiokitoblar yoki sodda kitoblar toping. Biz maktab adabiyoti darsliklaridan boshlashni maslaxat beramiz. Maktab adabiyoti darsliklari sifatida 5, 6, 7, 8, 9-sinf rus tili va adabiyoti va boshqa qo'llanmalarni topishni maslaxat beramiz. Bu kabi darsliklarda qiziqarli, sodda so'zlardan iborat kichik xikoyalar mavjud.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, agar siz boshlang'ich audiokitoblarni topa olsangiz, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Siz yana turli maqolalar ham o'qishingiz mumkin. Masalan, rus tilidagi turli gazetalar, jurnallar yoki turli saytlari bo'lmish rambler, yandexdagi yangiliklar, maqolalarni o'rganing. Bu bilan nafaqat til o'rganasiz, yanada ko'plab yangiliklardan boxabar bulasiz. Agar siz olti oyda chet tilini o'rganib olishni maqsad qilgan bo'lsangiz, har kuni ko'shimcha adabiyotlar o'qish, audio kitoblar eshitish, nutqingizni o'stirishingiz uchun rusiyzabon kishilar bilan so'zlashish bilan o'z ustingizda ishleng.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Чашкова Н.И., Аль-Диджейли (Рогова) О.П. Сборник диктантов и изложений по русскому языку для 5-9 классов школ с узбекским языком обучения: Пособие для учителей.-Т.: «Ўқитувчи», 1995,-280
2. Джураева З., Кучаров Т.У. Русский язык: Учебник для национальных групп профессиональных колледжей.-Т.: «Шарю», 2002,- 368 с.
3. Быстрова Е.А., Окунева А.П., Шанский Н.М. Учебный фразеологический словарь русского языка. Пособие для учащихся национальных школ.-М.: «Просвещение». 1984,-271 с. 362.